

DIPLOMDAN MUHIMROQ NARSA: NEGA ISH BERUVCHILAR TAJIRIBANI TALAB QILMOQDA?

Javlonbek ABDUMALIKOV

O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi

Bugun mehnat bozori keskin o'sib bormoqda. Har bir sohada o'z kasbining “diplomli” mutaxassisleri yetishib chiqmoqda. Biroq, kun mavzusi shundaki, ularning necha foizi olingan diplomni oqlay oladi...?

O'tkazilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra, yoshlar O'zbekiston sharoitida ko'proq diplom muhim hisoblanishini ta'kidlashsa, ba'zilar aksincha agar ishni yaxshi bilsa bu hujjatni so'rashmasligini aytishdi. Xo'sh, aslida bunga zamon talabi qanday?

Har yili minglab bitiruvchilar ish bozoriga kirib keladi. Biroq, ish o'rinlari esa cheklangan. Natijada ish beruvchi eng tez moslashadigan va kam xatoga yo'l qo'yadigan nomzodni tanlaydi. Bular albatta oliy ta'limda shu sohani ham nazariy ham amaliy o'rgangan tayyor kadrlardir. Ularga bevosita soha doirasidagi terminlar bilan murojaat qilish mumkin. Ish joyida yangi dasturlar, yangi tizimlar bilan ishlashga to'g'ri kelganda, tayyor kadrlar uchun tezroq ko'nikma hosil bo'ladi. Shuningdek, bilim olib, yetarlicha amaliyot o'tagan talabalar yangi ish joyi uchun investitsiya kiritib, yuqori lavozimli mutaxassis ham bo'lishi tabiiy.

Hozirgi kunda kompaniyalar “o'qitish bosqichi”ni qisqartirishga harakat qilmoqda. Ular bozordagi raqobat sharoitida tezkor va samarali faoliyat yuritishga majbur. Shu sababli yangi xodimni bir necha oy davomida o'qitish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish ko'plab tashkilotlar uchun ortiqcha xarajat hamda vaqt yo'qotilishiga olib keladi. Ish beruvchilar esa vazifalarni qisqa muddatda bajaradigan, ish jarayoniga tez moslasha oladigan va mustaqil faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni afzal ko'rmoqda. Ishga olish jarayonida ham “Bu sohada oldin ishlaganmisiz?” degan savol bilan murojaat qilishadi. Tajribali xodimlar kompaniyaning umumiy samaradorligini oshiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, kompaniyadagi xato va kamchiliklarni kamaytiradi. Shu bois mehnat bozorida amaliy tajribaga ega bo'lgan nomzodlar ishga qabul qilish jarayonida ko'proq ustunlikka ega bo'lmoqda.

Masalan, kundalik hayotda kompaniyalar uchun muhim bo'lgan marketing yo'nalishini olaylik. Bu sohani tashqi muhitdan o'rgangan xodim bilan oliy ta'lim bosqichida o'rgangan xodim o'rtasida farq bor, albatta. Pullik kurslar orqali yokida ish jarayonida o'rganib so'ng ish boshlagan odam marketing strategiyalari haqida bilishi mumkin, lekin real mijoz bilan ishlash, byudjetni boshqarish yoki kompaniya natijasini tahlil qilishda qiynalishi ehtimoli bor. Shuning uchun ham ish beruvchilar o'rgatishga vaqt sarflamay, tayyor xodimni olishni xohlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirilishi zarur. Shuningdek, yoshlarni talabalik davridanoq startaplar, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va kasbiy tanlovlarda faol ishtirok etishga jalb qilish lozim. Kelajakda muvaffaqiyatli karyera qurishni istagan talabalar to'rt yillik o'quv davri mobaynida faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratishlari lozim. Chunki auditoriyada olingan bilimlar amaliyot bilan mustahkamlangandagina haqiqiy kasbiy tajribaga aylanadi. Ayniqsa, yuqori kurslarda tahsil olayotgan talabalar o'qish bilan bir qatorda o'z mutaxassisligiga oid amaliyot ishlarda faol qatnashishlari maqsadga muvofiqdir. Bu ularga nazariy bilimlarni real ish jarayonida sinab ko'rish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish hamda mehnat bozori talablarini yaqindan o'rganish imkonini beradi. Natijada oliy ta'lim muassasasini bitirayotgan yosh mutaxassis nafaqat diplomga, balki amaliy tajriba va ish beruvchilar talab qiladigan zarur ko'nikmalarga ham ega bo'ladi. Bunday yondashuv nafaqat bitiruvchilarning bandlik darajasini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun innovatsion fikrlaydigan va zamonaviy talablar asosida faoliyat yurita oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Diplom oloy bilim borligi, tajriba ishning sifati